Gemostatik ta’sirga ega “Glilagin” preparatini ishlab chiqarilishi yo’lga qo’yildi

O’zR FA Bioorganik kimyo instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan jarrohlik amaliyotlaridan oldin va keyin qon ketish jarayonlarini oldini olishda, mahalliy va bachadandan qon ketish jarayonlarida gemofiliya bilan bog’liq qon ketishlarida va trombotsitopenik purpura va allergik diatezlarda qarshi “Glilagin” dori vositasini ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi.



Preparatning ta’sir mexanizmi, qon tomir-trombotsitar gemostaziga bog’lik bo’lib, qon tarkibidagi trombotsitlar sonining oshishi va ularning adgeziv va agregatsion xususiyatlarini, shuningdek, trombotsitar tizimining faollashishi bilan birga, kapillyarlar o’tkazuvchanligining kamayishi hamda hosil bo’layotgan quyqaning retraktivligini kuchaytiradi.

Preparat V sinf kam zaharli preparatlar jumlasiga kiradi, kumulyativ, mahalliy seskantiruvchi, mutagenlik, emriotoksiklik, teratogen va allergik xususiyatlarga ega emas. Glilagin periferik qon sistemasiga, jigar va buyrak, xronik kasalliklarda ichki qo'llanishda a'zolarning patomorfologiyasiga va to'qimalariga ta'sir ko'rsatmaydi.

Hozirgi kunda amaliy tibbiyotda ishlatiladigan analoglari "Ditsinon", "Vikasol" va "Aminokapron kislota"lari sintetik birikmalar bo'lib, ulardan farqli ravishda "Glilagin tabletkalari 0.005g" 100% tabiiy, o'simlikdan olingan birikmalar asosida tayyorlanganligi sababli yonaki salbiy ta'sirlarga ega emas.